

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori 9-bandida belgilangan topshiriq ijrosini ta’minlash maqsadida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024 yil 27-dekabrdagi 490-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan 2025-yilga mo‘ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar bo‘yicha 2025 yil 7-8 noyabr kunlari Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi institutida bo‘lib o‘tgan **“Intensiv qishloq xo‘jaligida agrobiotexnologik muammolar va ularning innovatsion yechimlari”** mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

HISOBOTI

1. **Anjuman mavzusi.** “Intensiv qishloq xo‘jaligida agrobiotexnologik muammolar va ularning innovatsion yechimlari” “Агробіотехнологіческие проблемы в интенсивном сельском хозяйстве и их инновационные решения” “Agrobiotechnological problems in intensive agriculture and their innovative solutions” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya.

2. **Anjuman maqomi.** Xalqaro miqyosidagi.

3. **Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyani o‘tkazish uchun asos bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari yoki boshqa qaror va manbalar.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyundagi O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PQ-273-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-iyuldagi qishloq xo‘jaligi birlashmalarining a‘zolari, meva-sabzavot klasterlari ishtirokchilari va tadbirkorlik subyektlariga mahalliy sharoitda yetishtirilgan intensiv ko‘chatlar (pakana va yarim pakana) xo‘raki, kishmishbop va sanoatbop tok ko‘chatlari hamda payvandtaglarni sotib olish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiya ajratish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi 458-son qarori, farmonlari va farmoyishlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining qator buyruq va ko‘rsatmalari asosida.

4. **Anjumanning ilmiy yo‘nalishi, maqsad va vazifalari.**

- Agrobiotexnologik muammolarni innovatsion yechimlari
- qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish saqlash va qayta ishlash ularni zararli organizmlardan himoya qilish
- qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda ilm-fanning o‘rni va ahamiyatini kuchaytirish

- fan va texnikaning muhim ilmiy va texnologik muammolarini hal etish
- olimlar va soha mutaxassislarining faol ishtirokini ta'minlash hamda ular o'rtasida o'zaro ilmiy-ijodiy hamkorlikni kuchaytirish
- Intensiv meva- sabzavotchilikda biotexnologiya
- Intensiv qishloq xo'jaligida kimyolashtirishning innovasion texnologiyalari.
- Tuproq unumdorligini oshirish.

Maqsadi. Intensiv qishloq xo'jaligi sharoitida yuzaga kelayotgan agrobiotexnologik muammolarni aniqlash bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar va ularning ilmiy asoslangan innovatsion yechimlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishdan iborat.

Anjuman vazifalari:

- oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash ekologik sof mahsulot yetishtirishda qishloq xo'jaligining o'rnini yoritish;
- qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish va saqlashni zamonaviy usullarini ishlab chiqish;
- oziq-ovqat xavfsizligi sohalaridagi dolzarb masalalarni nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish;
- zamonaviy agrobiotexnologik yondashuvlar asosida samarali va ekologik toza mahsulot yetishtirishda barqaror yechimlar ishlab chiqish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, qayta ishlashni zamonaviy holatini tahlil qilish;
- resurs tejovchi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlovchi innovasion texnologiyalar asosida ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish;
- kasallik - zararkunandalardan himoya qilishning dolzarb masalalarini tahlil qilish;
- mamlakatimiz hududining turli tuproq-iqlim sharoitlariga mos yaratilgan ko'chatlarni holatini tahlil qilish;
- sho'rlangan va qurg'oqchil mintaqalarda meva-sabzavotlarni o'stirish holatini tahlil qilish va rivojlantirish;
- zamonaviy texnika va texnologiyalardan samarali foydalanish hisobiga tuproq unumdorligini saqlash va tiklash;
- ekinlar hosildorligini ko'paytirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish;
- sohadagi mavjud muammolar va ularni ilmiy yechimlari hamda, ilmiy tadqiqot sohasidagi hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

5. Muhokama qilinadigan muammolar. Konferensiyada meva-

sabzavot ekin turlarini hududga mosini to'g'ri tanlash, ularga agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazish oziq - ovqat xavfsizligining muhim, oziq-ovqat xavfsizligi barqarorligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishning biologik va agrotexnologik asoslari, meva-sabzavotchilik, uzumchilik, kartoshkachilik, polizchilik, o'simliklarni zararli organizmlardan himoya qilish dorivor ekinlar yetishtirish va qayta ishlash, qishloq xo'jalik ekinlari mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash, agrokimyo, tuproqshunoslik, melioratsiya, qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar bo'yicha erishilgan oxirgi innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni rivojlantirish muammolari muhokama qilinadi va o'zaro fikr almashinilib tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi.

Anjumanda quyidagi muammolar muhokama qilindi:

- har xil soha mutaxassislari (mevachilik va sabzavotchilik mutaxassislari, issiqxona mutaxassislari, biotexnologiya, agronomiya, fitopatolog, agroximik, injener-texnolog, seleksioner va h.k.)ni oziq-ovqat xavfsizligi muammolariga oid fundamental izlanishlarni o'zaro hamkorligini ta'minlash, amalga oshirish va bu yo'nalishdagi ishlarni kelajakda kengaytirish va integratsiyalash;

- intensiv qishloq xo'jaligida kimyolashtirishning innovatsion texnologiyalarini sabzavot, bog' va poliz ekinlarining hosildorligiga oshirish;

- meva-sabzavotchilik, uzumchilik, kartoshkachilik, polizchilik, o'simliklarni zararli organizmlardan himoya qilish;

- qishloq xo'jalik ekinlari mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash;

- meva - sabzavotchilikda sifatli hosil yetishtirishni tashkil etishning muammolarini innovatsion hal etish;

- agrokimyo, tuproqshunoslik, melioratsiya, qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar bo'yicha erishilgan oxirgi innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni rivojlantirish muammolari muhokama qilinadi.

6. O'tkaziladigan konferensiyaning Davlat ilmiy-texnika dasturlari, xalqaro ilmiy hamkorlik dasturlari bilan bog'liqligi.

Konferensiya mavzusi Davlat ilmiy texnik dasturlari doirasida bo'lib, unda fan va ishlab chiqarishning uyg'unlashishining ustuvor tomonlari muhokama qilinadi. Konferensiya mevachilik, sabzavotchilik, agronomiya, fitopatologiya, entomologiya, biotexnologiya, ekologiya, agroximiya, texnologiya, seleksiya kabi fanlarning yetakchi olim va mutaxassislarning ustuvor yunalishlarida fundamental va amaliy izlanishlarini o'zaro hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirish istiqbollari namoyon qiladi. Anjuman iqtidorli yoshlar

ishtirokidagi Davlat ilmiy-texnik dasturlar doirasida bajarilayotgan loyihalar hamda xalqaro ilmiy loyihalar bilan uzviy bog'liq.

7. Anjuman natijalaridan kutilayotgan ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik. Ilmiy-nazariy anjuman materiallari, nashrlari xorijiy hamda respublikamiz miqyosidagi dehqon – fermerlar, tashabbuskor tadbirkorlar, klasterlar, Oliy o'quv yurtlari, Ilmiy tadqiqot institutlari uchun soha mutaxassis olimlarining ilmiy-tadqiqot ishlarida, intensiv bog' arpo qilishda foydalaniladi. Respublikamizdagi texnologik va innovatsion jarayonlar tahlil qilinadi. Iqtisodiy samaradorlikka erishilgan amaliy loyihalar "Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar" Respublika yarmarkasiga ishtirok etish uchun tavsiya qilinadi.

8. Anjumanda yosh olimlar, magistrlar, mutaxassislar, mustaqil izlanuvchilar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ishtirok etishi. Anjumanda mevachilik, sabzavotchilik, agronomiya, fitopotalogiya, entomotologiya, biotexnologiya, ekologiya, agroximiya, texnologiya, seleksiya sohasida tadqiqot olib borayotgan olimlar, mutaxassislar, Respublika oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari, doktorantlari va magistrantlari ishtirok etishi nazarda tutilgan. Mazkur xalqaro anjumanga mahalliy mutaxassislar, sohalarning malakali kadrlari bilan bir qatorda xalqaro konfrensiyada Vengriya va Tojikiston kabi mamlakatlar soha vakillari, shuningdek, 30 nafardan ortiq mahalliy mutaxassislar va olimlar offlayn hamda onlayn shaklda ishtirok etishdi. Anjumanda mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot institutlarida tadqiqot olib borayotgan 60 dan ortiq yosh olim, magistr va bakalavriat talabalari qatnashdi.

Anjumanni o'tkazishda respublikada mavjud soha tashkilotlarining ishtiroki. Ilmiy-amaliy anjumanda "Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti", "Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti", Toshkent davlat Agrar universiteti, Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Jizzax politexnika instituti, Guliston davlat universiteti, va boshqa oliy o'quv yurtlardan mutaxassis olimlar, Maroqand meva sabzavot MCHJ", "SAG Agro MCHJ", "Sharq sanoat" "Щелково-Агрохим" qatnashishi rejalashtirilgan.

Anjuman ochilishiga bag'ishlangan birinchi yalpi majlis: 2025-yil 7-noyabr kuni soat 10:00 da Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti faollar zalida Samarqand davlat universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori H.Xushvaqto'v kirish so'zi bilan boshlandi. So'ngra konferensiyaning yalpi yig'ilishida xorijiy va respublikamizning yetakchi mutaxassislari tomonidan ma'ruzalar tinglandi. Jumladan: Germaniyaning "University of Rostock" (Germany) universiteti doktori Görres Grenzdörffer va tadqiqotchisi Doston

Tuvalov Tulkin ugli “Ecological assessment of vegetation transformation in sandy rangelands of Uzbekistan: In case study in the Kyzylkum Desert” mavzusidagi ma’ruzasi bilan, Tojikiston texnologiya universiteti professori Soliev Z.M. “Organic phosphorus content in soils formed under various environmental conditions, including anthropogenic impact and its distribution among physical and chemical soil fractions” mavzusidagi ma’ruzasi bilan, Akademiya M.Mirzaev nomidagi BUV ITI ning Samarqand ilmiy tajriba stansiyasi katta ilmiy xodimi, qishloq xo’jalik fanlari doktori (DSc) “Uzum navlarining agrobiologik ko’rsatkichlari” mavzusidagi ma’ruzasi bilan, Respublika “Yong’oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar” uyushmasining raisi o’rinbosari Xaydarov Ilyos Abdirashitovich “In vitro sharoitida yong’oq navlari va payvandtaglarini klonal mikroko’paytirish bosqichlari” mavzusidagi ma’ruzasi bilan, Guliston davlat universiteti O’zR FA O.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti, katta ilmiy xodimi Alimov Alisher Erkinovich, Akmal Xushvaqovich Islomov “Gossipol sirka kislotasi” mavzusidagi ma’ruzasi bilan, Respublika “Yong’oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar” uyushmasining fitopotologi, Toshkent davlat agrar universiteti doktoranti Omanturdiyev Shokir Sayilboyevich “Yong’oqmevali ko’chatzorlar (yong’oq va bodom ko’chatlari) da uchraydigan zararkunanda hasharot turlari” mavzusidagi ma’ruzasi bilan, Sabzavotchilik poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot instituti “Ko’kdala ilmiy-tajriba stansiyasi”, Sabzavot va poliz ekinlari seleksiyasi va urug’chilik laboratoriyasi mudiri va bo’lim boshliqlari Abdualim Ortiqov Muxiddinovich va Nurilla Saidov Urolovichlar “Qovunning turli xil navlarini yetishtirishda fenologik ko’rsatkichlarning ilmiy tahlili” va “Ertangi tarvuz yetishtirishda juyaklarga plyonka tortishning agrobiologik ahamiyati” mavzusidagi ma’ruzalari bilan, Samarqand Agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti professori, q.x.f.d. Shuxrat Rizayev “Shirin (sabzavot) makkajo’xorini turli ekish muddatlari va mineral o’g’itlash me’yorlarining so’ta mahsuldorligiga ta’siri” mavzusidagi ma’ruzasi bilan, Jizzax politexnika instituti biologiya fanlari nomzodi, dotsent Тиркашева Мукаддас Бахромовна “Выращивание горных арчовников (Juniperus) Узбекистана и адаптация к экстремальным условиям” mavzusidagi ma’ruzasi bilan, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Agrobiotexnologiyalar va oziq – ovqat xavfsizligi instituti professori, q.x.f.doktori Farxod Xashimov Hakimovich “Mineral o’g’itlar me’yorlarning kartoshkaning o’sishi va rivojlanishiga ta’siri” mavzusidagi ma’ruzasi bilan chiqish qildi.

Anjumanda mamlakatimiz aholisini sifatli, arson meva-sabzavot mahsulotlari bilan ta’minlashda dehqon va fermerlarga keng-ko’lamli sharoit yaratish, intensiv bog’ barpo qilishda va zamonaviy issiqxonalar qurishda past foizli kredit va subsidiyalar joriy qilinib, bunday imkoniyatlar respublikamiz

hududlarida tashkil qilingan muhim masalalari hisoblanadi. Mevali ekinlarning ko'chatlarini, sabzavot ekinlarining urug'larini chet eldan intraduksiya qilingan nav va duragaylarini hududimiz tuproq-iqlim sharoitlariga moslashtirib keng joriy qilish, zamonaviy agrotexnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etib, ishlab chiqarishning integrasiyasi kabi masalalar ilmiy-amaliy asoslarini yaratish uchun zamin bo'lib qoladi.

Anjumanning so'nggi kunida konferensiya faoliyati yuzasidan yakuniy muhokamalar o'tkazildi. Konferensiyaning yuqori darajada tashkil etilganligi, olimlar va ishlab chiqarish mutaxassislarining anjumanda yuqori darajada faol ishtirok etganligi, taqdim etilgan ma'ruzalarning yuqori saviyada va keng qamrovli ekanligi ta'kidlandi. Anjuman Respublikamiz olimlarining sohada erishayotgan ilmiy natijalari, mavjud muammolar va viloyatimiz turli ishlab chiqaruvchilari o'rtasida ilmiy hamkorligi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi, ularni ko'proq o'tkazish hamda yosh tadqiqotchilarni kengroq jalb etish lozimligi belgilandi.

Anjuman yakunlari bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalar berildi.

1. Intensiv qishloq xo'jaligida qishloq xo'jalik ekinlaridan mo'l va sifatli hosil olishda kasallik va zararkunandalardan himoya qilishning uyg'unlashgan tizimidan keng foydalanish, bunda biologik himoya tizimidan ustuvor foydalanishga erishish.

2. Aholini meva –sabzavot mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishda o'g'itlarning ekologik xavfsizligini ta'minlovchi me'yorlarning qo'llanilishini, ekologik toza mahsulot yetishtirishda organik dehqonchilik tizimini keng qo'llash orqali erishish.

3. Meva –sabzavot mahsulotlarini yetishtirishda kam suv talab etiluvchi ekinlarni tanlab olib, qurg'oqchil mintaqalarda yetishtirish, tomchilatib sug'orish tizimini joriy etish.

4. Aholini ekologik toza mahsulot bilan ta'minlashda meva-sabzavot ekinlari yetishtirishga ixtisoslashgan klasterlar tizimida mevali daraxtlarning intesiv ko'chatlarini, sabzavot ekinlarini hosildor, tashqi muhitning noqulay omillariga chidamli, mahalliy sharoitga mos, kasallik va zararkunandalarga chidamli navlarini yaratish dolzarb masalalardan biri ekanligi.

Meva-sabzavot ekinlaridan yetishtirilgan mahsulotni saqlash, qadoqlash va yetkazib berish sohasining zamonaviy usullarini takomillashtirilishi zarurligi.

5. Sabzavotchilikka ixtisoslashgan klasterlar samaradorligini oshirishda ekiladigan sabzavotlarning yangi, noqulay tuproq – iqlim shariotlarga mos, hosildor navlari, duragaylarini yaratish, agrotexnikasini takomillashtirish;

- yangi istiqbolli, eksportbop sabzavotlar assortimentini oshirish hisobiga klasterlar eksport salohiyatini oshirish;

- yangi tizim bo'yicha jahon talablariga javob beruvchi mutaxassis kadrlarga

bo'lgan ehtiyojni ta'minlash maqsadida oliy ta'lim muassasalari va klaster o'rtasida uzviy hamkorlikni barqaror rivojlantirishni ta'minlash.

6. Bog'dorchilikda an'anaviy usullardan to'liq voz kechgan holda, tomchilatib sug'orish asosidagi intensiv bog'lar barpo etish asosida tog' va tog' oldi hududlarida bog'dorchiligini tashkil etish va ayni shu hudud tuproq –iqlim sharoitiga mos ko'chatlar bilan ta'minlash.

7. Anjuman natijasida viloyatimizdagi turli ishlab chiqarish klasterlari va fermer xo'jaliklari bilan ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy hamkorlikda yuqori samaradorlikka erishildi, meva-sabzavot ekinlarini resurstejamkor yetishtirish texnologiyalarini joriy etish.

8. Uzunmichilikda eksport ahamiyatiga ega bo'lgan kishmishbop toklar agroteknikasini organik uzum yetishtirish tamoillarini ishlab chiqish.

9. Respublikamiz tuproq – iqlim sharoitlariga mos meva –sabzavot ekin turlarini to'g'ri tanlash, ularni parvarishlashda sug'orish, o'g'itlash va kasallik zararkunandalarga qarshi kurashda zamonaviy intensiv texnologiyalarni joriy qilish, yetishtirilayotgan mahsulotni xalqaro organik mahsulot maqomini beruvchi sertifikat olib evropa mamlakatlariga eksport qilish, asosiy ekindan bo'shagan yerlarga tuproq unumdorligini oshiruvchi oraliq ekinlarni tanlab ekish orqali tuproq unumdorligini oshirish dolzarb masala hisoblanadi.

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor**



H.Xushvaqtov

“Intensiv qishloq xo'jaligida agrobiotexnologik muammolar va ularning innovatsion yechimlari” mavzusida xalqaro anjumandan fotolavhalar



Institut direktori b.f.d. Toshpo'lot Radjabov



q.x.f.doktori Baxtiyor Mirzaxidov



Етёк дарахларида 6-7 ойларда озма-мевасури ва ер ари барглари кемириб зарар келтирган.
Утган йил об-хаво куруқ келгачлиги сабабли бундай зараркуналдар кўпайган эди.



